

# RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

**Barnoyev Olim**

**JizPI “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası assistenti**

**Khurmatov Behzod**

**Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tojikiston Davlat tibbiyot universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Dunyoda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot, jamiyat, raqamlashtirish, jarayon, axborot-kommunikatsiya.

**Annotation:** digital technologies, which are rapidly developing in the world, are leading to a radical change in the structure of socio-economic activity, Economic Policy and public administration of countries, both qualitatively and technologically. This article provides information on the role of the digital economy in the country's economy.

**Keywords:** digital technology, economy, society, digitization, process, information and communication.

Jahonda jadallik bilan rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishini, davlatning iqtisodiy siyosati va boshqaruv tizimini modernizatsiyalashni taqozo etada. Sababi, raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda joriy etilishi oqibatida mamlakatlar o‘rtasidagi

rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bunda har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, jamiyatning axborotlashganlik darajasi albatta katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda dunyoda «raqamli iqtisodiyot»ning o'sish sur'atlari 15,5 foizni tashkil etmoqda. Rivojlangan davlatlarda «raqamli iqtisodiyot»ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirgi paytda o'zida «raqamli iqtisodiyot»ning joriy qilinishidan juda katta foyda ko'rmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda AQSh yiliga 400 milliard AQSh dollaridan ko'proq «raqamli xizmat»larni eksport qilayotgan bo'lsa, 2025-yilgacha AQSh sanoat sohasini «raqamlashtirish»dan qo'shimcha 20 trln. AQSh dollardan ortiq daromad olishi kutilmoqda.

Iqtisodiyot va jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida – digitization ya'ni, raqamlashtirish, ba'zan esa digitalization ya'ni, raqamlashtirilishi ma'nosini bildiradi.) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish zarur. Keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi: axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalaridir<sup>1</sup>.

1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda. 2016-yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma'ruza e'lon qildi (“Raqamli dividendlar”)<sup>2</sup>.

Raqamli iqtisodiyot bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – AKTga asoslangan iqtisodiyotdir. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) uni elektron ma'lumot almashish, uni qayta ishlash va boshqarishni ta'minlaydigan yoki yaratadigan korxonalar deb tasniflaydi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Данное определение приводится, в частности, экспертами UNCTAD (The Transformative Economic Impact of Digital Technology, [http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09\\_Katz\\_en.pdf](http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09_Katz_en.pdf))

<sup>2</sup> <https://aniq.uz/yangiliklar/raqamli-iqtisodiyot-nima>

<sup>3</sup> Ефимушкин В.А., Ледовских Т.В., Щербакowa Е.Н. Инфокоммуникационное технологическое пространство цифровой экономики // Телекоммуникации и транспорт. 2017. Том 11. №5. С.15-20

R. Meshcheryakovning fikricha raqamli iqtisod tushunchasining talqini bo'yicha 2 xil yondashuv mavjud<sup>4</sup>:

– klassik yondashuv: raqamli iqtisod – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisod bo'lib, ayni paytda faqatgina elektron mahsulotlar va xizmatlar sohasini tavsiflaydi. Klassik misollarga teletibbiyot, masofaviy ta'lim, media-kontentni keltirish mumkin (kino, televizor, kitoblar va boshqalar).

– zamonaviy yondashuv: raqamli iqtisod – raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir. Iqtisodchi-sotsiologlarning ta'rifiga ko'ra «raqamli iqtisod bizning haqiqatimizni to'ldiruvchi virtual muhitdir».

Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes bo'lib, elektron tijorat bilan bog'langan hamda raqamli ko'rinishga ega bo'lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyat turi hisoblanadi. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar bevosita elektron pul orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy qilish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyotning belgilari ma'lum bo'lib, u quyidagi xususiyatlar bilan ham ajralib turadi:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik darajasi;
- elektron hujjat almashinuvining amalga oshirilishi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining o'zaro elektron integratsiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalarining mavjudligi;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- korporativ tarmoqlarning rivojlanishi va undan foydalanish.

---

<sup>4</sup> Калужский М.А. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход: монография / изд.3-е, перераб. и доп. – ОмГТУ. – М.-Берлин: Директ-Медиа, 2015. – 338 с.

Raqamli iqtisodiyot bir qator qulayliklarga ega bo'lib, u quyidagilar bilan ajralib turadi:

- to'lovlar uchun xarajatlar qisqaradi;
- tovar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi;
- raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari yuqori bo'ladi;
- iste'molchi fikrini tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi;
- tezroq, sifatliroq va qulayroq imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarning rolini global miqyosda ham, mahalliy darajada ham ko'rishimiz mumkin. Bir tomondan, raqamli iqtisodiyot yangi tarmoqlar to'plami sifatida global iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan qismini ifodalaydi. So'nggi yillarda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi Internet xizmatlari, uyali aloqa, onlayn o'yinlar sanoati, elektron savdo va boshqalar uchun katta bozorlarni yaratishga olib kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Durdona Adashboy qizi Razzaqova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz). 2021
2. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istikbollari. -T: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018, 172 bet.
3. Baltabayeva G.R. va boshqalar. O'zbekistonda elektron biznesning rivojlanish istiqbollari. -T: "Format poligraf" nashriyoti, 2016, 205 bet
4. Baltabayeva G.R.va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yunalishlari. -T: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018, 232 bet.
5. Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni va ro'li //Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – T. 5. – S. 64-66.
6. Umirova, G. (2022). Mamlakatimizdagi monopoliyaga qarshi kurashishning raqobat muhitini shakllantirish. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(1), 288-290.

7. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(05), 126-130.
8. Umirova, G. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 8, 74-77.